

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

“PEDAGOGIKA” FAKULTETI

«MAKTABGACHA TALIM» KAFEDRASI

«Maktabgacha talim» ta'lim yo'nalishi 3 “d” kurs talabasi

Shamuratova Zamiraning

«Pedagogika fanini o'qitish metodikasi» fanidan

KURS ISHI

**Mavzu: Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida muammoli
dars tashkil etish**

Qabul qildi:

G.Torebekova



Nukus-2014 yil

MUNDARIJA:

- I Kirish
- II Asosiy qism
 - II.1 Muammoli ta`lim texnologiyasi haqida tushuncha
 - II.2 Muammoli o`qitishning umumiy funktsiyalari va metodlari
 - II.3 Muammoli darsning tuzilishi va dars jarayonida muammoli vaziyatning olidini olish
 - II.4 Ta`lim jarayonida o`quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullari
 - II.5 Pedagogika fanini o`qitish jarayonida muammoli o`qitish texnologiyalaridan foydalanish yo'llari

Xulosa

Foydalangan adabiyotlar

KIRISH

Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganlaridek, «Demokratik jamiyatda har bir insonni erkin fikrlaydigan etib tarbiyalash kerak. Agar bolalar erkin fikrlashga o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta bilim kerak, ammo bilim o'z yo'liga .mustaqil fikrlash ham katta boylikdir».

Bu vazifani bajarish uchun hozirgi zamon o'qituvchisi, ayniqsa boshlang'ich sinflarda ta'lim beruvchilardan o'z kasbiy mahoratlarini doimiy tarzda oshirib borishlari, pedagogik texnologiya metodlar mohiyatini to'liq anglashlari va uni o'z darslarida mohirona foydalanadigan bo'lishlarini taqozo etadi.

Talim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, talim samaradorligini oshirish, tah'lil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kun muh'im vazifalaridan biridir. O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyat muhimdir.

Oliy maktabga quyilgan maqsadga qarab o'qitishning muammoli va muammosiz turlari bo'lishi mumkin. Agarda ta'lim muassasasi oldiga quyilgan maqsad tinglovchilarda ularning fakrlari va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa u xolda o'qitish muammoli bulmasdan ananaviy buladi.

Xozirgi ta'lim tizimida samarali o'qitish texnologiyalaridan biri – bu muammoli o'qitishdir. Uning vazifasi - faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli o'qitish ijodiy faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi.

Muammoli o'qitishning moxiyati muammoli vaziyatni vujudga keltirish orqali yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirishdan iborat.

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi. Shuningdek, o'rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur.

Shunday qilib, o'qitishda muammoli vaziyat shunchaki «fikr yo'lidagi kutilmagan to'siq» bilan bog'langan aqliy mashaqqat holati emas. U bilish

maqsadlari maxsus taqazo qilgan aqliy taranglik holatidir. Demak, muammoli vaziyat mohiyati shuki, u talaba tanish bo'lgan ma'lumotlar va yangi faktlar, xodisalar (qaysiki, ularni tushunish va tushuntirish uchun avvalgi bilimlar kamlik qiladi) o'rtasidagi ziddiyatdir. Bu ziddiyat bilimlarni ijodiy o'zlashtirish uchun xarakatlantiruvchi kuchdir.

Muammoli vaziyatning belgilari quyidagilar:

- talabaga notanish faktning mavjud bo'lishi;
- vazifalarni bajarish uchun talabaga beriladigan ko'rsatmalar, yuzaga kelgan bilish mashaqqatini hal qilishda ularning shaxsiy manfaatdorligi.

Muammoli vaziyatdan chiqib olish hamma vaqt muammoni, ya'ni nima noma'lum ekanligini, uning nutqiy ifodasi va echimini anglash bilan bog'langan.

Muammo uch tarkibiy qismdan iborat:

- ma'lum (berilgan vazifa asosida),
- noma'lum (ularni topish yangi bilimlarni shakllantirishga olib keladi)

va avvalgi bilimlar (talabalar tajribasi). Ular noma'lumni topishga yo'nalgan qidiruv ishlarini amalga oshirish uchun zarurdir. Avvalo talabaga noma'lum bo'lgan o'quv muammosi vazifasi belgilanadi va bunda uning bajarilish usullari hamda natijasi ham noma'lum bo'ladi, lekin talabalar o'zlaridagi avval egallangan bilim va ko'nikmalarga asoslanib turib kutilgan natija yoki echilish yo'lini izlashga tushadi.

Muammoli o'qitishning maqsadi, nafaqat ilmiy bilishning natijalarini sinchliklab taxlil qilish, urganishdan iborat bulmay, tinglovchining bu natijalarini olishi jarayonini urganishdan, bilish faoliyatini va uning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishdan iborat.

Kurs ishining maqsadi: Ta'lim samaradorligini oshirishda муаммоли таълим metodlaridan foydalanish yo'llarini o'rganish.

Kurs ishining predmeti: Ta'lim samaradorligini oshirishda муаммоли таълим metodlardan foydalanish yo'llari

II.1. Muammoli ta'lim texnologiyasi haqida tushuncha

Muammoli o'qitish amerikalik faylasuf, psixolog va pedagog Dj.D'yunning nazariy qoidalariga asoslanadi va XX asrning 20-30-yillarida tarqala boshladi. Dj.D'yun o'qitish uchun quyidagilarni asos qilib belgiladi: ijtimoiy, konstruksiyalash, badiiy ifodalash, ilmiy-tadqiqiy. Bu asoslarni amalga oshirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi: so'z, san'at asarlari, texnik qurilmalar, o'yinlar va mehnat.

Muammolik tizimi o'quv jarayonining mantiqiy tuzilishni, o'rganilayotgan materialning mazmunini, talabalarning o'quv o'zlashtirish faoliyatlarini tashkil qilish usullarini, ularni boshqarishni, dars texnologiyasini va pedagogning talabalar faoliyatining natijasini nazorat qilishni aks ettiradi. Agar pedagog muammoli o'qitishni tashkil qilish nazariyasining mohiyatini va mazmunini, o'qitishning texnik vositalarini, usullarini, shakllarini yaxshi o'zlashtirsa va ularni amaliy faoliyatida ijodiy qo'llay olsa, u holda muvaffaqiyat o'z-o'zidan keladi. Pedagogning yaxshi didaktik tayyorgarligi juda muhimdir, chunki umumiy nazariyani yaxshi bilmay turib, ishga ijodiy yondoshish mumkin emas. O'qitish jarayoni san'at bo'lib, o'z faniga talabalarni jalb qilish, fikriy bilishning go'zalligini namoyon qilish, talabalarni mustaqil fikrlashga undashdan iborat.

Bugungi kunda, muammoli o'qitish deganda mashg'ulotlarda pedagog tomonidan yaratiladigan muammoli vaziyatlar va ularni echishga qaratilgan o'quvchilarning faol mustaqil faoliyati tushuniladi. Buning natijasida o'quvchilar kasbiy bilimlarga, ko'nikmalarga, malakalarga ega bo'ladilar va fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

Ijodiy qobiliyat har tomonlama rivojlangan shaxsning asosiy ko'rsatkichi bo'lib, ulardagi fikrlash qobiliyatining mavjudligi hisoblanadi. Agar o'qitish ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga olib kelsa, u holda uni rivojlantiruvchi o'qitish bilan birga olib borilsa, bunday o'qitishda, muallim fikrlash qobiliyatining qonuniyatlariga suyangan holda, maxsus pedagogik vositalar asosida talabalarning bilishga intilishi va fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan fanning

asoslari o`qitish jarayonidan iborat bo`lsagina bunday o`qitish muammoli bo`ladi. Ta`lim oluvchilarning fikrlash faoliyatini tayyor usullar bilan faollashtirishga qaratilgan o`qitish yo`li ijodiy bo`lmaydi.

Muammoli o`qitish yo`li bilan faollashtirish maqsadi shundan iborat bo`ladiki, unda tasodifiy jamlangan alohida fikrlash qobiliyatini o`rgatish darajasidan iborat bo`lmay, maqsadli vazifalarni echish uchun fikriy ta`sirlarni tizimli olib borish zarur. Bunday faollikda tinglovchi taxlil, solishtirish, sintezlash, umumlashtirish va amalda uni konkretlashtirib, yangi ma`lumot olishdan iborat bo`ladi. Boshqacha aytganda, bu avval o`zlashtirilgan bilimlar asosida yangi bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishdan iborat. Avvalgi bilimlardan foydalanib bunday xulosalarga kelishni na muallim, na kitob o`rgatolmaydi, u talaba tomonidan izlanadi va topiladi – bu esa bilishning izlanuvchan usulidan iborat. O`quvchilarni haqiqiy faollashtirish ularning mustaqil izlanishlari bilan emas, balki muammoni echish orqali amalga oshadi. Agar izlanish nazariy texnikaviy va amaliy o`quv muammolarini echishga qaratilgan bo`lsa, u holda bunday o`qitish muammoli o`qitishga aylanadi. Muammoli va an`anaviy o`qitishlar orasidagi farq ikki holatdan iboratligini ko`rish mumkin: ular bir-biridan pedagogik jarayonning maqsadi va tamoyili bilan ajraladi. Muallim tomonidan tushuntirish – ko`rsatish orqali o`qitishni tashkil qilish asosida o`quvchilarga fanning tayyor xulosalarini uzatish tamoili yotadi. Muammoli o`qitish jarayonining maqsadi asosida esa, tinglovchining o`qitish, o`zlashtirish faoliyatida izlanuvchanlik tamoili yotadi, ya`ni ular tomonidan fanning xulosalarini va ta`sir doiralarini ochishi, yangi fanlarni yoki bilimlarning amaliyotga tadbiq etishni tadqiq etishidan iborat.

Muallimning muammoli o`qitish faoliyati shundan iboratki, unda u etarlicha murakkab tushunchalar haqida, tizimli ravishda muammoli holatlarni yaratgan holda ma`lumot beradi, tinglovchilarga muammoli vaziyatda, voqea va hodisalarning asosiy faktorlarini izohlab, ularning o`quv-bilish faoliyatlarini mustaqil xulosalar chiqarish va muallim yordamida aniq tushunchalar va qonunlarni shakllantirishga yo`naltiriladi.

Muammoli o'qitish, o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarga taalluqli, chunki bu erda shaxs sub`ekt sifatida qaraladi, muammoli vaziyatlarning maqsadi - pedagogik jarayonda o'ziga xos qiziqish uyg'otishdir. Muammoli o'qitish, o'qitishning eng tabiiy samarali usulidir, chunki ilmiy bilimlar mantiqini o'zida muammoli vaziyatlar mantiqini namoyish etadi.

Muammoli vaziyatlar kiritilib, an'anaviy, bayon etish o'quv materialining eng maqbul tarkibi hisoblanadi. Pedagog muammoli vaziyat yaratadi, o'quvchini uni echishga yo'naltiradi, echimni izlashni tashkil etadi. Muammoli o'qitishni boshqarish pedagogik mahoratni talab etadi, chunki muammoli vaziyatning paydo bo'lishi individual holat bo'lib, tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuvni talab etadi.

Muammoli o'qitish, ijodiy jarayondan nostandart ilmiy-o'quv masalalarni nostandart usullar bilan echishni taqozo etadi. Tahsil oluvchilarga mashq uchun beriladigan masalalar, olingan bilimlarni mustahkamlash va malakalar hosil qilish uchun xizmat qilsa, muammoli masalalar esa faqat yangi echimlar izlashga qaratiladi.

O'quv materialini muammoli taqdim etilishining mohiyati shundaki, unda o'qituvchi bilimlarni tayyor holda taqdim etmasdan, o'quvchilar oldiga muammoli masalalar qo'yadi, ularni echimining yo'llari va vositalarini izlashga undaydi. Muammo, yangi bilimlar va harakat usullar sari, o'zi yo'lga boshlaydi.

Shuni qat'iyatlik bilan ta'qidlash lozimki, bu erda yangi bilimlar ma'lumot uchun emas, balki muammo yoki muammolarni echimi uchun beriladi. An'anaviy pedagogik usuldagi – bilimlardan muammoga qarab – o'quvchilar mustaqil ilmiy izlanish ko'nikma va malakalarini hosil qila olmaydi, chunki ularga o'zlashtirish uchun tayyor natijalar taqdim etiladi. Muammoning echimi ijodiy fikrlashni taqozo etadi. O'zlashtirilgan bilimlar shablonlarni takrorlash bilan bog'liq bo'lgan reproduktiv psixik jarayonlar, muammoli vaziyatlarda hech qanday samara bermaydi.

Agar inson muntazam tayyor bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga o'rgatilgan bo'lsa, uning tabiiy ijodiy qobiliyatini so'ndirish ham mumkin; u

mustaqil fikrlashni «esdan chiqaradi» fikrlash jarayoni muammoli masalalarni echishda a`lo darajada namoyon bo`ladi va rivojlanadi.

Muammoli o`qitishda kechadigan jarayonlarning psixologik mexanizmi quyidagicha bo`ladi: inson ziddiyatli, yangi, noma`lum muammoga (muammo – murakkab nazariy yoki amaliy masala bo`lib, yashirin ziddiyatlarni qamrab oladi, uning echimi turli, hatto muqobil vaziyatlarni talab etadi) duch keladi, unda hayratlanish, ajablanish holati paydo bo`ladi, «gap nimada?» degan savol tug`iladi.

Muammoli o`qitishning asosiy belgisi, bu ilmiy, o`quv yoki barcha faoliyat turlarida paydo bo`ladigan zaruriy ob`ektiv qarama-qarshiliklar aksi hisoblanadi. Bu esa barcha sohalarining harakatlantiruvchi va rivojlantiruvchi manbaidir. Shu sababli muammoli o`qitishni rivojlantiruvchi deb atash mumkin, zero uning maqsadi – bilimlarni, farazlarni shakllantirish, ularni ishlab chiqish va echishdan iboratdir. Muammoli o`qitishda fikrlash jarayoni faqat muammoli vaziyatni echish maqsadida joriy etiladi, u nostandart masalalarni echish uchun zarur bo`lgan fikrlashni shakllantiradi.

Muammoli o`qitish samaradorligining to`rtta bosh sharti mavjud:

- muammo mazmuniga qarab etarli qiziqish uyg`otishni ta`minlash;
- muammo echimidagi har bir bosqichda paydo bo`ladigan ishlarni bajara olish mumkinligini ta`minlash (ma`lum va noma`lumlar nisbatining maqbulligi);
- muammo echimida olinadigan axborotni o`quvchilar uchun muhimligi;
- pedagog va o`quvchi orasidagi munosabat xayrixohlik ruhida kechishi, ya`ni o`quvchilar tomonidan bildirilgan barcha fikr va farazlar e`tiborsiz va rag`batsiz qolmasligi zarur.

Muammoli o`qitishning bosh psixologik-pedagogik maqsadlari quyidagilardan iborat:

- tahsil oluvchining fikrlash doirasi va qobiliyatlarini o`stirish, ijodiy ko`nikmalarini rivojlantirish;

- muammoni mustaqil echishda va faol izlanish davrida olingan bilim va ko'nikmalarni tahsil oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishi, buning natijasida ushbu bilim va ko'nikmalar an'anaviy o'qitishdagidan ko'ra ancha mustahkam bo'lishi;

- nostandart muammolarni ko'ra oluvchi, qo'ya oluvchi va echa oluvchi o'quvchining faol ijodiy shaxsini tarbiyalash;

- kasbiy muammoli fikrlashni rivojlantirish – har bir aniq faoliyatda o'zining xususiyatlariga egaligi.

O'quvchi noma'lum echimni topish uchun mustaqil yoki o'qituvchi yordamida izlanadi. Muammoni jamoaviy hal etishda paydo bo'luvchi sub`ekt-ob`ekt-sub`ekt munosabatlari ijodiy fikrlashni faollashtirishga olib keladi.

II.2 Muammoli o`qitishning umumiy funktsiyalari va metodlari tizimi

Muammoli o`qitishning umumiy funktsiyalari:

□ o`quvchilar tomonidan aqliy- amaliy faoliyat usullarini va bilimlar tizimini o`zlashtirish;

- talabalarning bilish mustaqilligini va aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- didaktik fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish.

Bulardan tashqari muammoli o`qitishning maxsus funktsiyalari ham mavjud:

- bilimlarni o`zlashtirishning ijodiy ko`nikmalarini tarbiyalash;
- bilimlarni qo`llashning ijodiy ko`nikmalarini tarbiyalash;
- ijodiy faoliyat amaliyotini shakllantirish va to`plash.

Demak, muammoli o`qitishning vazifasi tinglovchilar tomonidan bilimlar tizimi va aqliy hamda amaliy faoliyatlarining usullarini samarali o`zlashtirishga hamkorlik qilish, ularda yangi vaziyatda olingan bilimlarni ijodiy qo`llash malakasini hosil qilish, o`quv va tarbiya muammolarini hal qilishdan iborat.

Muammoli o`qitish ijodiy yoki evristik tarzda amalga oshirilishi mumkin.

Ijodiy metod ta`lim oluvchining ijodiy mustaqilligini to`la amalga oshiradi. Unda tinglovchilar pedagog bergan vazifani bajaradi va o`zlari ham o`quv muammosini shakllantiradi, izlanishni amalga oshiradi va pirovard natijaga erishadi. Pedagog faqat tinglovchilarning ilmiy izlanishlariga umumiy raxbarlik qiladi. Ijodiy metoddan o`rganilayotgan kursning umumiy asoslarini qamrab olgan eng muhim mavzularni o`qitishda foydalanish maqsadga muvofiq.

Magistrant (talabalar)ning ijodiy ishlari shakliy jihatdan rang-barang. Ular ma`ruza matnini tayyorlash va seminarga tayyorgarlik ko`rish, u yoki bu masalaning nazariy holatini (adabiyotlar bilan ishlash, xujjatlarni o`rganish) ko`rgazmali qurollar, didaktik materiallarni tayyorlash va boshqalar. Qisman ijodiy metod murakkab muammoni bo`laklarga ajratib, qulay masalalarini bosqichma-bosqich aniqlab olishda qo`llaniladi va unda hal qilingan har bir bosqich masalaning keyingi bosqichini echishda asos bo`lib xizmat qiladi.

Muammoli o`qitish metodlarining tizimi.

Muammoli o`qitish metodlarining tizimi ikki xil bo`lib, ular umumiy metodlar tizimi va binar metodlar tizimidan tashkil topadi.

Umumiy metodlar tizimiga:

- 1) Ko`rgazmali tushuntiruv;
- 2) Reproduktiv;
- 3) Muammoli talqin;
- 4) Qisman – izlanuvchan;
- 5) Tadqiqiy usul (metod).

Juftli metodlar tizimi – axborot-reproduktiv; axborot-evristik va boshqa o`qitish metodlari. Umumiy va binar (juftli) metodlarining organik birikmasidan iborat bo`lgan muammoli o`qitish metodi. Shunday qilib, umumlashgan holdagi muammoli o`qitishni oltita didaktik usuliga ajratish mumkin:

- 1) monologik;
- 2) talqinli;
- 3) dialogli;
- 4) evristik;
- 5) izlanuvchan va dasturlashtirilgan topshiriqlar metodi.

II.3 Muammoli darsning tuzilishi va dars jarayonida muammoli vaziyatning olidini olish

Muammoli darsning tuzilishi.

Darsning tuzilishi tematik va darslar rejasi asosida yaratiladi, dars taxlilining mantikini aniklab beradi.

Muammoli darsning tuzilishidagi elimentlar:

- 1) tinglovchilar oldingi bilimlarining dolzarblashuvi;
- 2) yangi bilimlar va xarakat usullarining uzlashtirilishi;
- 3) bilimlar va malakalarining shakllanishi.

Bu tuzilish o'qitishning asosiy boskichlarini va zamonaviy darsning tashkiliy boskichlarini kursatadi. Muammoli darsning kursatkichi bulib, uning tuzilishida izlanuvchan faoliyatning bulishi kerakligidan, tabiiyki, muammolar muammoli dars tuzilishidagi ichki kismdan iborat buladi:

- 1) muammoli xolatlarning paydo bulishi va muammoni kuyish;
- 2) taxminlarni olga surish va gipotezani asoslash;
- 3) gipotezani isbotlash;
- 4) muammo echimining tugriligini tekshirish;

Muammoli darsning tuzilishi o'qitish jarayonining tashki va ichki elimentlarining birlashuvidan iborat bulgani uchun, tinglovchi mustakil ukuv faoliyatini boshkarish imkonini yaratishga olib keladi.

Shunday qilib, insoniyat rivojlanishining xozirgi bosqichida muammoli ta'lim juda zarur, chunki muammoli o'qitish xar tomonlama rivojlangan, tanqidiy fikrlovchi, turli xil muammoli vaziyatlardan chika olish imkoniga ega bulgan, bilimlarni tuplay oluvchi va tizimlashtira oluvchi, uzining rivojlanishini, taxlil qilaoluvchi, xamda tug'rilay oluvchi shaxsni yaratadi va shakllantiradi.

Har qanday o'quv materiali ham muammoli bayon etishga mos kelavermaydi. O'quvchilarga fan tarixini o'rgatishda muammoli vaziyatlarni yaratish oson. Farazlar, echimlar fandagi yangi ma'lumotlar takroriy bosqichidagi an'anaviy tasavvurlarning inqirozi, muammoga yangicha yondashuvlarni izlash va hokazolar muammoli bayon etish uchun mos keluvchi mavzular hisoblanadi. Kashfiyotlar

tarixi orqali izlanish mantiqini egallash – muammoli fikrlashni shakllantirishning asosiy istiqbolli yo'llardan biridir. O'qitishning an'anaviy usulidan muammoliga o'tish muvaffaqiyati, quyidagi ikki omil bilan belgilanadigan «muammolik darajasi»ga bog'liq bo'ladi:

muammoning murakkablik darajasi – mazkur muammo doirasida tahsil oluvchi uchun ma'lum va noma'lumlar nisbatiga ko'ra aniqlanadi;

muammo echimida tahsil oluvchi ijodiy ishtirokining ham jamoaviy, ham shaxsiy hissalari hisobga olinadi.

Muammoli o'qitishning uchta asosiy shakli mavjud.

1. *O'quv materialini muammoli bayon etish* – ma'ruzaviy mashg'ulotlarda monolog tarzda, seminar mashg'ulotlarida esa dialog tarzda olib boriladi. O'qituvchi ma'ruza paytida o'quv materialini bayon etayotganida muammoli masalalar tuzadi va ularni o'zi echadi, o'quvchilar esa echimlarni izlash jarayoniga faqat xayolan qo'shiladilar. Masalan, «O'simliklar hayoti haqida» mavzusidagi ma'ruzaning boshida «Nega ildiz va tana qarama-qarshi tomonlarga o'sadi?» degan muammo qo'yiladi, ammo ma'ruzachi tayyor javobni bermaydi, u fanning bu haqiqatga qanday etib kelgani, bu hodisa sabablari haqidagi farazlarni tekshirish bo'yicha o'tkazilgan tajribalar haqida hikoya qiladi.

2. *Qisman izlanuvchan faoliyat* tajribalar, laboratoriya ishlarini bajarishda muammoli seminarlar, evristik suhbatlar davomida namoyon bo'ladi. O'qituvchi muammoli savollar tizimini tuzadi, bu savollarga javoblar olingan bilimlar bazasiga tayanadi, ammo ular oldingi bilimlarda mavjud emas, ya'ni savollar tahsil oluvchilarga intellektual qiyinchiliklar tug'diradi va maqsadga yo'naltirilgan ijodiy izlanishga undaydi. O'qituvchi imkoni boricha «boshqacha javoblar» yo'naltiruvchi savollarni tayyorlab qo'yishi lozim, u tahsil oluvchilar javoblariga tayanib, yakuniy xulosa qiladi. Qisman izlanish usuli, 3 va 4-darajali mahsuldorlik faoliyatini (foydalanish, ijod) va bilimlarni 3 va 4-darajasini bilim-ko'nikma, bilim-transformatsiya (qayta shakllanish) ta'minlaydi. An'anaviy tushuntirish va reproduktiv o'qitishga esa, bilim-tanishi va bilim-nusxa shakllanadi, xolos.

3. *Mustaqil tadqiqot faoliyatida* tahsil oluvchilar mustaqil ravishda muammoni ifoda etadilar va uni echadilar (kurs yoki bitiruv ishlarida, ilmiy tadqiqot ishlarida) va o'qituvchi nazorati bilan yakunlanadi, bu esa 4-darajali mahsuldorlik faoliyatini (ijod) va 4-darajali eng samarali, mustahkam bilimni (bilim - qayta shakllanish) egallashni ta'minlaydi.

Muammoli o'qitishning didaktik tizimida birmuncha to'liq tadqiq qilingan tashkil etuvchisi muammoli ta'lim hisoblanadi. U o'rganuvchilarning fikrlash faoliyatini birmuncha faollashtirishga, ularda muammoning echimiga yondashishni shakllantirishga, va nihoyat - ijodiy tafakkurni rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir intellektual qiyinlashuvning maxsus vaziyatlarini - muammoli vaziyatlar va ularning echimlarini tuzish bilan ta'minlanadi. Muammoli vaziyat o'qitish jarayonida muhim motiv va hayajonli vosita sanaladi. Uning samarasi to'g'risida A.M Matyushkin, M.I. Maxmutov, I.Ya. Lerner kabi yirik olimlar o'z nazariyalarini yaratdilar.

Muammoli-modulli o'qitish texnologiyasida asosiy diqqat xatoliklarni izlab topish maqsadiga muvofiq tarzda tuzilgan maxsus vaziyatlar tizimi orqali o'rganuvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish jihatlariga qaratiladi. U o'zida xatoliklarning uch asosiy guruhini birlashtiradi: gnoseologik, metodik va o'quv. Gnoseologik xatolar bilishga oid xarakterdagi xatolar hisoblanib, bilimlar evolyutsiyasi jarayonida olimlar tomonidan yo'l qo'yiladi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, o'quv jarayonida gnoseologik xatolardan foydalanish o'quvchi (talaba)larda borliqni tanqidiy mushohidalash, tahlil qilish va o'z xatolarini to'g'rilash ko'nikmalarini shakllantiradi, shuningdek, o'quv predmeti va fanga bo'lgan munosabatlarini o'zgartiradi: o'rganilayotgan fan mazmuni o'rganuvchilar oldida tayor haqiqatlar yig'indisi sifatida emas, balki g'oyalar va odamlarning tarixiy dramasi tarzda, ijtimoiy maktab va yo'nalishlar kurashi tarzda, odat va yangilanish qarama-qarshiligi sifatida turadi.

Metodik xatolar o'quv xatolari bilan o'zaro bog'liq: o'rganish xatolari ko'p hollarda - o'qitish xatolari natijasidir. O'quv xatolari maxsus tashxislovchi jadvallarda har bir muammoli modul uchun guruhlanadi va keyinchalik kuchli

ta'sir etuvchi vositalar sifatida foydalaniladi. Agar an'anaviy o'qitishda bilmaslikdan bilishga o'tish standartli vaziyatlarni qo'llash bilan chegaralansa, muammoli-modulli o'qitishda o'quvchining yaqindan rivojlanishi doirasi yangi bilimlarni yuzaki o'zlashtirish va noto'g'ri qo'llashga olib keladigan tanqidiy vaziyatlar - xatolar sohasigacha kengaytiriladi. Bunday sharoitda bilmaslikdan bilishga o'tish sohasi o'rganuvchi uchun asosiy muammoga aylanmaydi, balki tabiiy zveno bo'lib qoladi, ularning dolzarb rivojlanish mintaqasiga aylanadi.

Muammoli-modulli o'qitish texnologiyasining etakchi sifat belgisi - bu egiluvchanlik hisoblanadi. Zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishda egiluvchan avtomatlashtirilgan tizim muhim sanalgani kabi hozir ham, kelajakda ham pedagogik texnologiya samaradorligi ko'p jihatdan uning ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgaruvchan sharoitga moslasha olish va zudlik bilan ta'sir etish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Egiluvchanlik tuzilmali, mazmunli va texnologik holda bo'lishi mumkin.

Tuzilmali egiluvchanlik qator holatlar bilan ta'minlanadi: muammoli-modul tuzilmasining safarbarligi, muammoli-modulli dastur pog'onali, egiluvchan jadval loyihasining mavjudligi va ko'p vazifali o'quv xonalarining jihozlanganlik imkoniyatlari va boshqa.

Mazmunli egiluvchanlik birinchi navbatda ta'lim mazmunini tabaqalashtirish va integratsiyalash imkoniyatlarida namoyon bo'ladi. Bunday imkoniyatning o'zi taklif etilayotgan texnologiyada o'quv materialining blok va modulli printsip asosida saralanish evaziga vujudga keladi.

Texnologik egiluvchanlik muammoli-modulli ta'lim jarayonining quyidagi jihati bilan ta'minlanadi: o'qitish metodlarining variantligi, nazorat va baholash tizimining egiluvchanligi, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini yakka tartibda tashkil etish va boshqa.

M.A.Choshanovning ta'kidlashicha, kasb maktablarida o'qitish jarayonini muammoli-modulli asosga o'tkazish quyidagilarga imkon beradi:

- o`quv materialining muammoli modullarini guruhlash yo`li bilan kursni to`liq, qisqargan va chuqurlashtirilgan variantlarini ishlab chiqishni ta`minlaydigan dialektik birlikda integratsiyalash va tabaqalashtirishni amalga oshirish;

- bilim darajasiga bog`liq holda talabalarning u yoki bu muammoli-modulli dastur variantini mustaqil tanlashi va ularning dastur bo`ylab individual siljish sur`atini ta`minlanishi;

- muammoli modullardan pedagogik dasturli vositalarni yaratish uchun stsenariylar sifatida foydalanish;

- o`quvchilarning bilish faoliyatini boshqarishda o`qituvchi ishida maslahatchi-koordinatsiyalovchi vazifaga urg`uni ko`chirish;

- o`quv materialini bayon qilish tezligi va o`zlashtirish darajasiga putr etkazmagan holda o`qitish metodlari va shakllari majmuasiga moslik asosida kursni qisqartirish;

Shu bilan birgalikda opponentlar tomonidan muammoli-modulli o`qitishning qator kamchiliklari ko`rsatildi, ular: ta`lim jarayonining bo`laklarga bo`linganligi, ya`ni o`quvchilarning mustaqil ishlari salmog`i birmuncha katta; o`quv predmetining yaxlitligi va mantiqini inkor etish; o`quvchilarni tayyorlash torligi: o`qitish kursining bog`liq bo`lmagan muammolar yoki masalalar seriyasiga qadar qisqarishi; umumlasmaga ziyon etkazadigan xususiy, aniq ko`nikmalarnigina shakllantirishi; muammoli modullarni tayyorlash va mashg`ulotni o`tkazishga tayyorgarlikning ko`p mehnat talab qilishi.

Sanab o`tilgan kamchiliklarning ko`pligi modulli o`qitish texnologiyasini o`rnatish bosqichida birmuncha aniq sezilsa-da, asta-sekinlik bilan dazmollanib boradi. Shuni eslatish joizki, u yoki bu texnologiyani “toza“ holda joriy etish mumkin emas. Xohlaymizmi yoki yo`qmi, o`quv jarayonini tashkil etishning an`anaviy yondashuviga va mavjud didaktik jarayonga tayanishga to`g`ri keladi.

Ta`lim mazmunini muammoli-modulli loyihalash quyidagi asosiy tayanchlardan iborat bo`ladi:

- bilish faoliyatining fundamental metodlari doirasida kursni joy-joyiga qo'yib tuzish. Misol uchun, matematika kursida bunday metodlarga matematik modellashtirish, aksiomatik, koordinat, vektorli, mantiqiy metodlar kiradi;

- tayanch muammoli modullarning mazmunini aniqlash. Saralashning muhim sharti bilish faoliyati metodlarining printsipli mazmuni hisoblanib, umummadaniy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu o'qitishning tayanch mazmuniga oid quyidagi mezonlarni hisobga olishni taqozo etadi:

- fundamental, uzviylik, uzluksizlik va ta'limni insonparvarlashtirish;

- echimi bilish faoliyati metodlarining mosini qo'llashni talab etadigan yirik kasbiy-amaliy muammolarni turli guruh kasblarining o'ziga xosligini hisobga olib ajratish;

- ixtisosli va darajali tabaqalashtirishni ta'minlashga yo'naltirilgan o'zgaruvchan modullarning mazmunini tanlash va hajmini aniqlash, shuningdek, muammoli-modulli dasturlarning turli - to'liq, qisqargan va chuqurlashtirilgan variantlari bo'yicha o'quvchilarning yakka tartibda olg'a siljishi uchun sharoitlar yaratish.

Muammoli modullarni qo'llash ko'lamini quyidagi tartibotlarni qamrab oladi: tizimli, avtonom va integratsiyalashgan. Tizimli tartibot muammoli modullaridan mustaqil kurs doirasida foydalanishni taqozo etadi.

II.4. Ta`lim jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullari

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu muayyan yosh davrida tugallangan va esdan chiqarilgan vazifa ham emas. Shu bilan birga tanqidiy fikrlashga olib boradigan tugallangan yo'l ham yo'q.

Lekin tanqidiy fikrlovchilarning shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o'quv sharoitlari to'plami mavjud. Uning uchun:

- talabalarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish;
- turli-tuman goya va fikrlarni qabul qilish;
- talabalarning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash;
- talabalarni kulgiga qolmaslikka ishontirish kerak;
- har bir talabaning tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o'zlarida ishonch xissini uyg'otish;
- tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim.

Shu munosabat bilan talabalar:

- o'ziga ishonchni orttirish va o'z fikri hamda goyalarining qadrini tushunish;
- o'quv jarayonida faol ishtirok etish;
- turlicha fikrlarni e'tibor bilan tinglash;
- o'z xukmlarini shakllantirishga hamda undan kaytishga tayyor turishi lozim.

Vaqt. Tanqidiy fikrlash vaqt talab qiladi.

Pirson, Xansen, Gordon (19u9)lar ta'qidlashadiki, o'z fikrlarini ijod qilish go'yo avvalgi goya, tasavvur, uchrashuvlar va tajribalarni arxeologik jixatdan tadqiq qilishga olib keladi. Shuning uchun ham:

- fikrlarini o'z so'zlari bilan ifodalash;
- o'zaro tanqidiy fikrlar almashish;
- o'z goyalarini ifodalay olish va konstruktiv takliflarga javob ola bilish;
- fikrlarni muayyan goyalar qiyofasida, qulay muxitda amalga oshira olish va o'z goyalarini to'la va aniq ifdalay olish.

Izn. Tanqidiy fikrlashda erkinlik bo'lishi uchun talabalar ma'qul va noma'qul narsalarni aytish, ular haqida fikrlash, ijod qilish uchun ruxsat olishlari lozim. Talabalar yo'l ko'yiladigan holatlarni anglab olishgach, tanqidiy tahlil qilishga faol kirishadilar.

Tanqidiy taxlilga izn olish onglilik tamoyiliga asoslanadi. Bunda taxlil va xaddan oshish orasidagi farq aniqlab berilishi lozim. Tanqidiy fikrlashga izn fikrlash uchun chinakam maqsad bo'lgan va do'stona hamda samarali sharoitda beriladi.

Rang-baranglik. Talabalarning fikrlash jarayonida turli fikrlar va goyalar paydo bo'ladi.

Rang-barang fikr va goyalar yakkayu-yagona javob mavjudligi xakidagi tasavvur bartaraf kilingan chogdagina yuzaga keladi. Fikrlarni ifoda qilish chegaralanganda talabalarning fikrlashiga chek ko'yiladi. Faqat birgina javob mavjud bo'lgan takdirda xilma-xil vosita va jarayonlardan foydalanish joizki, uning yordamida talabalar ana shu javobni topa olsin.

Faollik. Tanqidiy fikrlash talabalarning faolligi bilan bevosita boglangan. Odatda, talabalar sustkash tinglovchilar bo'lishadi, chunki ularda o'kituvchi bilimli yoki matnda uning bu bilimlari aks etgan, shu tufayli ularning bilimlari o'kituvchi mas'ul degan ishonch shakllanib kolgan. O'quv jarayonidagi talabalarning faol ishtiroki va o'kishlariga o'zlarining mas'ul ekanligiga tayyorligi tanqidiy fikrlashda kutilgan natijalarni beradi. Talabalarni fikr yuritishga, o'z goyalari va fikrlari bilan o'zaro o'rtoklashishga da'vat etish kabi pedagogik yondoshuv ularning faolligini o'stiradi.

Mixali Chikjentmixaliy (19u5) ta'qidlaydiki, talabalar o'sha murakkab darajadagi o'quv jarayonida faol ishtirok etishsa, bilish jarayonida qatnashganligidan katta baxra oladilar va o'zlarida chuqur qoniqish xissini sezadilar.

Tavakkalchilik. Erkin fikrlilik tavakkalchilikka asoslanadi. Uning bilim faoliyatida qo'rqmay tavakkal qiluvchi insonlarni ragbatlantirib turish joizdir. Fikrlash jarayonida «axmokona goyalar» akl bilan tuzilmagan birikma va

tushunchalar ilgari surilgan xolatlar xam bo'lishi mumkin. O'qituvchi uni o'quv jarayonini tabiiy xolati sifatida talabalarga tushuntirishi lozim.

Talabalarni tavakkaldan holi bo'lgan, ya'ni goyalar qadrlangan, talabalarining fikrlash faoliyatida faol ishtirokini yukori motivatsiyalash imkoni bo'lgan muxitda o'ylash lozimligini ularda ishonch xosil qilish zarur.

Kadrlash. Tanqidiy fikrlashning omillaridan biri talabalarining fikrlash jarayonini kadrlashdir. Tashkil etilgan fikrlash jarayonida talabalar o'z goyalari, tasavvurlarining o'qituvchi tomonidan qadrlanayotganini tushungan chogdagina chukur mas'uliyat va e'tiborga yarasha javob qaytaradilar.

Talabalar o'z fikrlash jarayonini qadrlashni namoyish qilishga harakat qiladilar, unga va uning oqibatlariga nisbatan jiddiy munosabatda bo'la boshlaydilar.

Boshqalar fikrlarini hurmat qilish. Fikrlash jarayonini tashkil etish davomida talaba ularning fikrlari, o'z tanqidiy taxlili natijalari qimmatli ekanligini ularning ongiga singdirish zarur. O'qituvchi talabalardan muayyan materialni shunchaki qayta ishlashni talab qilganda tayyor qoliplardan, andozalardan xoli bo'lishi lozim. Bu esa talabalarda o'zgalar goyalarini mexanik tarzda qayta ishlab chiqish eng muxim va qimmatli ekanligiga ishonch xosil qilishga olib keladi. Aslida talabalarga o'z fikri, o'ziga taalluqli bo'lgan goya va tasavvurlar qimmatli ekanligini ko'rsata olish zarur. Talabalarining o'zlari ham o'z fikrlarining qimmatbaxo ekanligiga ishonch xosil qila olishlari zarur. Ular o'z fikrining tushuncha va masalani muxokama qilish jarayonida o'ta muxim, shuningdek, katta xissa bo'lib xisoblanishini tan olishlari kerak.

O'zaro fikr almashuv. Fikrlash jarayoni talabalarining o'zaro fikr olishuvini ko'zda tutadi. Talabalarining o'zaro fikr olishishi ularning bir-biridan o'rganishdagi o'rtokchiligiga asos soladi. Talabalardan fikrlovchi sifatida o'zlarida bo'lgan yirik fikr va oddiy xatoga bo'lgan qobiliyatlarini boshqalarga ochib berish talab etiladi.

O'zaro fikr olishishda talabalardan diqqat bilan tinglash, o'zining qarashlar tizimini so'zlovchiga zo'rlab o'tkazish va boshka so'zlovchilarni tuzatib turishdan o'zini tiyib turishi xam talab etiladi. Bunga javoban talabalar boshqalarning yalpi

fikrlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Keng doiradagi munozara oqibati o'larok talabalar o'zlariga tegishli bo'lgan goyalarni taxlil qilish va uni aniqlashga yanada qobiliyati orta boradi hamda ularni o'z bilimlari va xayotiy tajribalarida yaratgan goyalari tizimiga tirkab boradi. Fikrlash jarayonini tashkil etishda uni o'tkazishning bir necha modellari mavjud. Ular:

- o'ziga ishonch xosil qilish;
- ishda faol ishtirok etish;
- o'rtoklar va o'kituvchi bilan fikr olishish;
- o'zgalar fikrini tinglay olish.

II.5 Pedagogika fanini o'qitish jarayonida muammoli o'qitish texnologiyalaridan foydalanish yo'llari

Muammoli o'qitish, ijodiy jarayondan nostandart ilmiy-o'quv masalalarni nostandart usullar bilan echishni taqozo etadi. O'quvchilarga mashq uchun beriladigan masalalar, olingan bilimlarni mustahkamlash va malakalar hosil qilish uchun xizmat qilsa, muammoli masalalar esa faqat yangi echimlar izlashga qaratiladi.

O'quv materialini muammoli taqdim etilishining mohiyati shundaki, unda o'qituvchi bilimlarni tayyor holda taqdim etmasdan, o'quvchilar oldiga muammoli masalalar qo'yadi, ularni echimining yo'llari va vositalarini izlashga undaydi. Muammo, yangi bilimlar va harakat usullar sari, o'zi yo'lga boshlaydi.

Shuni qat'iyatlik bilan ta'qidlash lozimki, bu erda yangi bilimlar ma'lumot uchun emas, balki muammo yoki muammolarni echimi uchun beriladi. An'anaviy pedagogik usuldagi – bilimlardan muammoga qarab – o'quvchilar mustaqil ilmiy izlanish ko'nikma va malakalarini hosil qila olmaydi, chunki ularga o'zlashtirish uchun tayyor natijalar taqdim etiladi. Muammoning echimi ijodiy fikrlashni taqozo etadi. O'zlashtirilgan bilimlar shablonlarini takrorlash bilan bog'liq bo'lgan reproduktiv psixik jarayonlar, muammoli vaziyatlarda hech qanday samara bermaydi.

Muammoli ta'limning asosini muammoli savol, topshiriq, muammoli vaziyat tashkil etadi. M.I. Maxmutovning fikricha, o'qituvchilarda intellektual qiyinchiliklar tug'diradigan savollargina muammoli sanaladi, chunki ularning javobi o'quvchilarning ilgarigi bilimlarida ham, o'qituvchi tomonidan berilgan axborotda ham bo'lmaydi¹.

Qanday sharoitlarda savollar muammoli bo'lib hisoblanadi? Bu ta'lim jarayonini tashkil qilishdagi eng murakkab jihatlardan biridir. Axir har qanday savol va har qanday ifoda ham muammoli bo'lavermaydi-ku. Bularning barchasi o'qituvchining mahoratiga bog'liq.

¹ Махмутов М.И. Мактабда проблемали таълимни ташкил қилиш. – Т.: Ўқитувчи, 1981. – 41 бет.

O'qituvchi mazkur guruh o'quvchilariga hech qachon javob bera olmaydigan savolni berishi ham mumkin. Masalan, pedagogika kollejarining 1-kurs o'quvchilariga «Ta'lim muassasasi menejmentining mohiyati nimada?» - degan savol beriladi. Bunga o'quvchining javob berishi u yoqda tursin, menejmentning o'zi nima ekanligini bilishga kuchi etmaydi. Kollejni bitiruvchi o'quvchi esa har ikkala tushunchaning mohiyatini hech qanday qiyinchiliksiz tushuntirib beradi.

Birinchi holda ham, ikkinchi holda ham savol muammoli emas, birinchi holda muammoli emasligining sababi, unda o'quvchilarni muammoga olib boruvchi savolda so'ralayotganiga tayanch ta'lim yo'q. Ikkinchi holda shuning uchun ham muammoli emaski, unda o'quvchilar bu mammoni allaqachon hal qilganlar, ya'ni ular buning hal qilish yo'lini biladilar.

Shunday qilib, savol quyidagi holatlarda muammoli bo'ladi: u ilgari o'zlashtirilgan tushuncha va tasavvurlar bilan, ma'lum o'quv vaziyatida o'zlashtirish zarur bo'lgan tushuncha va tasavvurlar bilan mantiqiy bog'langan bo'lishi; o'zida bilish qiyinchiligi hamda ma'lum va noma'lumning aniq chegarasi mavjud bo'lishi; yangini ilgari ma'lum bo'lgan bilimlar bilan taqqoslaganda mavjud zahira bilim, ko'nikma va malakaga qanoatlanmaslik hissini uyg'otish. Masalaning ayniqsa bu tomoni juda muhim, chunki u bilish qiyinchi-liklarini qiziquvchanlik va emotsional idrok bilan bog'laydi.

Bilishga oid masalalarda ham xuddi shunday yondashuv mavjud, ya'ni har qanday masala ham muammoli hisoblanmaydi. Agar bilishga oid masalalar o'quvchilar uchun yangi tushunchalarni, faktlarni, harakat usullarini o'z ichiga olsa, bu masala mazmunan muammolidir.

Masalan, Sergeli tumanida 268-maktabning biologiya fani o'qituvchisi "Ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari" bo'lganligi uchun darslarni ham vaqtida o'ta olmas edi. Darslarni o'tgan vaqtida ham o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini nazorat qilib bormasdi. O'quv yilning birinchi choragi tugab, o'quvchilar ta'tilga chiqishganida o'qituvchi ularning choraklik

baholrini qo'yib qo'ygandi. II chorak boshlangach o'quvchilar sinf rahbarlaridan biologiya fanidan qo'yilgan baholarni eshitib hayratlanib qolishdi. Chunki baholar o'quvchilar tomonidan olinmagan edi.

1. O'qituvchi to'g'ri ish qilgan deb o'ylaysizmi?
2. O'qituvchi ta'lim olganlikni tashxislashning qaysi tamoyillarini buzgan?
3. O'qituvchining o'quvchilarning o'quv faoliyatini bunday nazorat qilishi ularning bilim olishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadimi?

Pedagogika fanini o'qitishda muammoli o'quv topshiriqlaridan foydalanish ham ta'lim samaradorligini oshiradi. Muammoli o'quv topshirig'i – bu mazmunan o'quv muammosiga oid bo'lgan va yangi materialni mustaqil faoliyat yo'li bilan o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga mo'ljallangandir. Pedagogika fanini o'qitishda ham bunday muammoli o'quv topshiriqlaridan Amaliy mashg'ulotlar jarayonida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, o'qituvchi «Ta'limni tashkil etish shakllari va turlari» mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulotni amalga oshirayotgan vaqtda quyidagicha o'quv topshirig'ini beradi:

Quyidagi fikrlarni tegishlilikiga qarab ta'lim turlari (namoyishli-tushuntirish, muammoli, dasturlashgan)ga ajratib yozing.

- 1) asosiy metodlari: tushunish va eslab qolish;
- 2) bilimlarni mustakil egallash, o'quvchilarning ijodiy fikrlashlari va idrok etish faoliyatlarini rivojlantirish yo'li bilan ta'lim tashkil etiladi;
- 3) o'qishga qiziqishni uyg'otish, mahsuldor fikrlashini rivojlantirish;
- 4) o'quv materialining aloxida qismlarga ajratilishi;
- 5) darsning har bir bosqichini nazorat bilan yakunlanishi;
- 6) individual yondashuvning amalga oshirilishi;
- 7) vaqtni tejash, o'qituvchi va o'quvchilarning kuchlarini asrash;
- 8) o'quvchilar idrok etish faoliyatining qiyinligi;

- 9) ta'lim jarayonini samarali boshqarishni ta'minlaydi;
- 10) «tayyor» bilimlarni beradi;
- 11) o'quv jarayonini individuallashtirish, tabaqalashtirish imkoniyatining kamligi;
- 12) turli vaziyatni yaratish va mustaqil echish imkoniyatining qiyinligi;
- 13) o'qitish algoritmlarini ajratishga asoslanishi;
- 14) uning texnologiyasi turli-tumanligi bilan ajralib turmaydi;
- 15) bunday o'qitish asosini kibernetik yondashish tashkil etadi.

Bundan tashqari pedagogika fanini o'qitishda muammoli ta'lim metodlaridan foydalanish mumkin: o'quv materialini muammoli bayon etish, qisman izlanish faoliyati, tadqiqot metodi.

o'quv materialini muammoli bayon etish – ma'ruza mashg'ulotlarida monolog tarzda, seminar mashg'ulotlarida esa dialog tarzda olib boriladi. O'qituvchi ma'ruza paytida o'quv materialini bayon etayotganida muammoli masalalar tuzadi va ularni o'zi echadi, o'quvchilar esa echimlarni izlash jarayoniga faqat xayolan qo'shiladilar. Masalan, «Ta'lim jarayoni» mavzusidagi ma'ruzaning boshida «Hech o'ylab ko'rganmisiz, nega qarg'a 200-300 yil yashaydi, biroq uning bolaligi uch-to'rt oy davom etadi? Inson o'rtacha 60 yil umr ko'radi. Lekin uning bolaligi 20-25 yoshgacha davom etadi?» degan muammo qo'yiladi, ammo ma'ruzachi tayyor javobni bermaydi, u fanning bu haqiqatga qanday etib kelgani, bu hodisa sabablari haqidagi farazlarni tekshirish bo'yicha o'tkazilgan tajribalar haqida hikoya qiladi.

Qisman izlanish faoliyati tajribalar laboratoriya ishlarini bajarishda muammoli seminarlar, evristik suhbatlar davomida namoyon bo'ladi. O'qituvchi muammoli savollar tizimini tuzadi, bu savollarga javoblar olingan bilimlar bazasiga tayanadi, ammo ular oldingi bilimlarda mavjud emas, ya'ni savollar talabalarga intellektual qiyinchiliklar tug'diradi va maqsadga yo'naltirilgan ijodiy

izlanishga undaydi. O'qituvchi imkoni boricha «boshqacha javoblar» yo'naltiruvchi savollarni tayyorlab qo'yishi lozim, u o'quvchilar javoblarini tayanib, yakuniy xulosa qiladi. Qisman izlanish usuli 3 va 4-darajali mahsuldorlik faoliyatini (foydalanish, ijod) va bilimlarni 3 va 4-darajasini bilim-ko'nikma, bilim-transformatsiya(qayta shakllanish)ni ta'minlaydi. An'anaviy tushuntirish va reproduktiv o'qitishga esa, bilim-tanishi va bilim-nusxa shakllanadi, xolos.

O'rganishning tadqiqot metodi muammoli ta'limning umumiy metodlaridan biri sifatida o'qituvchi tomonidan asosan o'quvchilar oldiga yuqori darajada muammoli bo'lgan nazariy va amaliy tadqiqot topshiriqlari qo'yish yo'li bilan tashkil etiladi.

Tadqiqot xarakteridagi topshiriqlarning izlanishga doir topshiriqlardan farqi shundaki, birinchisida o'quvchilar yig'ilgna faktlar (tajriba, kuzatish, kitob ustida ishlash) va ularni nazariy jihatdan tahlil qilish, tizimlashtirish va umumlashtirish bo'yicha ish bajaradilar, kashfiyot va ixtirolar o'quvchilar tomonidan fakt materialarini tahlil qilish va umumlashtirish natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot metodida o'quvchi mustaqil ravishda mantiqiy operatsiyalarni bajarib, yangi tushunchalar hamda harakatning yangi usullari mohiyatini ochadi. O'quvchi mulohazalarining borishi, xulosalarining to'g'ri yoki noto'g'riligi o'qituvchi tomonidan o'quvchi bilan suhbat qilish jarayonida yoki uning tadqiqot natijasini og'zaki yoki yozma bayon qilganda aniqlanadi.

Pedagogika fanidan tadqiqot ishlari tashkil etish shakllariga ko'ra xilma-xil bo'lishi mumkin:

- o'quvchilar tajribasi;
- ilmiy tajribalarda ishtirok etish;
- ekskursiya va faktlar to'plash;
- arxivlarni o'rganish;
- aholi bilan suhbatlashish;
- ma'ruzalar tayyorlash va uni maktablarda o'qish;
- qo'shimcha adabiyotlarni o'rganish va hokazo.

Demak, tadqiqot metodi o'quvchilar mustaqil ravishda muammoni ifoda etadilar va uni echadilar (kurs yoki bitiruv ishlarida, ilmiy tadqiqot ishlarida) hamda o'qituvchi nazorati bilan yakunlanadi, bu esa 4-darajali mahsuldorlik faoliyatini (ijod) va 4-darajali eng samarali, mustahkam bilimni (bilim-qayta shakllanish) egallashni ta'minlaydi.

Umuman olganda, muammoli ta'lim pedagog va ta'lim oluvchilar uchun keng imkoniyatlar beradi. Bilimlarni shunchaki emas, ongli o'zlashtirish, o'quvchilarning bilishga qiziqish, ehtiyojlarni shakllantirishda muammoli ta'limning turli jihatlari (muammoli savol, topshiriq, vaziyatlarni hosil qilish, muammoli ta'lim metodlaridan foydalanish)ni qo'llash ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

X U L O S A

Xulosa qilib aytganimizda, muammoli o'qitishning zaruriy sharti talabalarda xakikatni va uning natijasini izlash jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabatni vujudga keltirishdir.

Muammoli o'qitish mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishning muxim tomoni shundaki, bunda o'kituvchi uning xam ta'limiy, xam tarbiyaviy funksiyasini yaxshi anglab olgan bo'lishi talab kilinadi. O'kituvchi xech kachon talabalarga tayyor xakikatni (echimni) berishi kerak emas, balki ularga bilimlarni olishga turtki berishi, mashg'ulotlarda va xayot faoliyatlarida zarur bo'lgan axborot, vokea, vakt va xodisalarni ongida kayta ishlashlariga yordam berishi lozim bo'ladi.

Bugungi kunda, muammoli o'qitish deganda mashg'ulotlarda pedagog tomonidan yaratiladigan muammoli vaziyatlar va ularni echishga qaratilgan o'quvchilarning faol mustaqil faoliyati tushuniladi. Buning natijasida o'quvchilar kasbiy bilimlarga, ko'nikmalarga, malakalarga ega bo'ladilar va fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

Muammoli o'qitish, o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarga taalluqli, chunki bu erda shaxs sub'ekt sifatida qaraladi, muammoli vaziyatlarning maqsadi - pedagogik jarayonda o'ziga xos qiziqish uyg'otishdir. Muammoli o'qitish, o'qitishning eng tabiiy samarali usulidir, chunki ilmiy bilimlar mantig'i o'zida muammoli vaziyatlar mantiqini namoyish etadi.

Muammoli vaziyatlar kiritilib, an'anaviy, bayon etish o'quv materialining eng maqbul tarkibi hisoblanadi. Pedagog muammoli vaziyat yaratadi, o'quvchini uni echishga yo'naltiradi, echimni izlashni tashkil etadi. Muammoli o'qitishni boshqarish pedagogik mahoratni talab etadi, chunki muammoli vaziyatning paydo bo'lishi individual holat bo'lib, tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuvni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. «Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». T.: 1997.
2. Azizxodjaeva N.N. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo. - T.: Moliya, 2002.
3. Bepal'ko V.P. Slagaemie pedagogicheskoy texnologii. – M.: Nauka, 1989.
4. Borodina N.V., Samoylova E.S. Modul'naya texnologiya v professional'nom obrazovanii: Uchebnoe posobie. - ekaterinburg.: UGPPU, 1998.
5. Davletshin M.G. Modul'naya texnologiya obucheniya. – T.: TGPU, 2000.
6. Yo'ldoshev J.G'. Usmonov S.A. «Pedagogik texnologiya asoslari». – T.: «O'qituvchi», 2004.
7. Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom protsesse. – M.: Znaniye, 1989
8. Kurbonov Sh., Seytxalilov E. Upravlenie kachestvom obrazovaniya. T., Sharq. 2006.
9. Maxmutov M., Ibragimov G.I., Ushakov M.A. Pedagogicheskie texnologii, razvitie mishleniya uchashixsya. – Kazan': 1993
10. Olimov Q.T., O.A.Abdquddusov, M.M.Axmedjonov, va boshq. Kasb ta'limi uslubiyoti. T.: «Moliya», 2006.
11. Pedagogika: pedagogicheskie teorii, sistemı texnologii. Pod red. Smirnova M: Izdatel'skiy tsentr «Akademiya», 1999.
12. Pedagogicheskaya texnologiya / Pod red. Kukushkina V.S. – Seriya «Pedagogicheskoe obrazovanie» - Rostov. Izdatel'skiy tsentr Mart, 2002.
13. Rashidov X., Xabib X. va boshqalar. Kasbiy pedagogika. O'quv-uslubiy qO'llanma. T.: 2007.
14. Raximov B.X., Mavlyanov A., Choriev V. va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar sxemalarda. O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiyalar., 2009.
15. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. – T.: Ta'lim markazi, 1999.
16. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot). T.: Moliya. 2003.

17. Selevko G. K. Sovremennıe obrazovatel`nye texnologii.- M.: Narodnoe obrazovanie, 1998.
18. Tolipov O`., Usmonboeva M. «Pedagogik texnologiyaning tatbiqiy asoslari». O`quv qo`llanma. Fan. O`zPFITI, 2006.
19. Farberman B.L. Progressivnye pedagogicheskie texnologii. – T.: Fan, 2002.
20. Xamidov A. Yangi pedagogik texnologiyalar. O`quv qo`llanma. - T.: 2004.
21. Shodiev N. Yangi pedaggik texnologiyalar.- S., 2001.